

Sultonova Maxsuda Aralovna

*Qashqadaryo viloyati Ko‘kdala tuman 1-son kasb hunar maktabi Tikuvchi kasbi
maxsus fan o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda Worldskills haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Worldskills International, Bandlik, Mehnat bozori*

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng, jamiyatda sanoatni rivojlantirish uchun professional kadrlarga bo‘lgan talab keskin oshdi. Biroq, kvalifikatsiyali kadrlar soni yetarli emas edi. Jamiyat oldida turgan dolzarb vazifa – “Malakali (Kvalifikatsiyali) kadrlar”ni tayyorlash va mehnat bozori talabini qondirish bo‘lib qoldi.

Sanoat korxonalarini yuritish, ishlab chiqarish salmog‘ini va maxsulot sifatini oshirish uchun yangi avlod kadrlarini tayyorlash mexanizmini yaratish uchun 1946 yilda Xose Antonio Elola Olaso yangi g‘oyani ilgari suradi.

Ispaniyada paydo bo‘lgan ushbu g‘oya -1947 yilga kelib Xalqaro kadrlar tayyorlaydigan tashkilotiga asos bo‘ldi.

Kadrlar malakasini oshirishning yangi ufoqlari Worldskills International – xalqaro notijorat tashkiloti bo‘lib, ikki yilda bir marta o‘tadigan xalqaro chempionatlarni tashkil etish orqali ishchi kasblar nufuzi va maqomini, shuningdek kasbiy tayyorgarlik standartlarini oshirishga qaratilgan.

1950-yilda Ispaniya va Portugaliya o‘rtasida 1-jahon chempionati tashkil etilib 12 nafar ishtirokchi etgan bo‘lsa, 2019-yilda Rossiya(Kazan shahri)da 63 davlatdan 1350 nafar ishtirokchi va 1350 nafar ekspert ishtirok etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635-son “Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” Davlat dasturining 139- band, Worldskills International (WSI) uyushmasi va sohaning boshqa xalqaro yetakchi tashkilotlari metodologiyasi bo'yicha ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va axborot texnologiyalari sohalarida ishchilarni o'qitish tizimini joriy etish,

140-band, O‘zbekistonda yoshlarni kasbiy o‘qitishning zamonaviy tizimini joriy etish va rivojlantirish maqsadida xalqaro «World Skills International» uyushmasiga qo‘shilish.

141-band, Xalqaro standartlarga muvofiq kasbiy malakani baholash tizimini joriy etish belgilangan.

Shu bois, yoshlarni kasbga o‘qitishning zamonaviy tizimini rivojlantirish maqsadida «Worldskills International» harakatiga qo‘shilish bo‘yicha 2019 yil 13 mayda Vazirlar Mahkamasining “Mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlarni kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 394-sonli qarori qabul qilindi va “Worldskills Uzbekistan” rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

2020-yil 17-yanvarda O‘zbekiston “Worldskills International” xalqaro harakatiga 83-chi a‘zo davlat sifatida a‘zolikka qabil qilindi. 2023-yil xisobida 86 ta davlat a‘zo.

Yangi O‘zbekiston uchun yangi kadrlar tayyorlash jarayoniga start berildi.

Mehnat bozorining malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, kasbiy ta’limni

ishlab chiqarish amaliyoti bilan integratsiyalash, kasbiy bilim va ko'nikmalarni va kompetensiyalarni baholashning xalqaro tizimini joriy etish uchun Worldskills International standartlari "drayver" sifatida qabul qilindi.

Worldskills International standartlari O'zbekistonning kelgusi umumjahon chempionatlarida qatnashishi, shuningdek mintaqaviy va milliy miqyoslarda musobaqalarni tashkil etish, kasbiy ta'lim tizimiga xalqaro standartlarni yanada kengroq tatbiq etishga xizmat qilish bilan bir qatorda, tayyorlanayotgan kadrlar malakasini xalqaro darajada oshishiga yordam beradi.

Worldskillsni O'zbekistonda rivojlantirish bo'yicha strategik hamkori -BMTning TARAQIYOT DASTURI sanaladi. BMTTD, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan hamkorlikda, "BMTTD – Rossiya federatsiyasi, taraqqiyot maqsadlarida" trast fondi moliyalashtirgan "O'zbekistonda yoshlar bandligiga ko'maklashish" qo'shma loyihasini amalga oshirmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad mehnat bozoridagi qator faol tashabbuslarni amalga oshirishda O'zbekiston Hukumatiga yordam ko'rsatish orqali O'zbekistonda, ayniqsa yoshlar (kollej va universitetlar bitiruvchilari, yosh ayollar va h.k.) orasida bandlikka ko'maklashish sanaladi.

"Worldskills" Uzbekistan ishchi kasblarini rivojlantirish va ommalashtirish assotsiatsiyasi, Worldskills International kompaniyasining O'zbekistondagi milliy operatori hisoblanadi.

"WorldSkills Uzbekistan" ishchi kasblarini rivojlantirish va ommalashtirish uyushmasini tashkil etish Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi "mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlarni kasbiy tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 394-sonli qaroriga muvofiq kasbiy malaka va vakolatlarni rivojlantirishning Milliy tizimini joriy etish doirasida nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi 2020 yil 17 yanvarda WorldSkills International xalqaro assotsiatsiyasi tarkibiga kirdi va uning 83-a'zosi bo'ldi.

Mamlakatning xalqaro harakatga qo'shilish bosqichlaridan biri 2019 yil dekabr oyida Toshkentda 18 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan yosh mutaxassislar o'rtasida ishchi kasblar bo'yicha birinchi Uzbekistan Skills ochiq chempionati bo'lib o'tdi. Ikki kunlik musobaqalarda Toshkent, Buxoro, Samarqand va Shahrisabzdan ishtirokchilar, ekspertlar va kuzatuvchilar, shuningdek, Rossiya federatsiyasi va Qozog'iston jamoalari ishtirok etdi.

Harakat faoliyatida ishtirok etish O'zbekiston uchun yoshlar bandligi darajasini oshirish uchun yangi imkoniyatlar va istiqbollarni ochib beradi (har yili 600-700 mingga yaqin odam mehnat bozoriga chiqadi). Mehnat bozoridagi talabga muvofiq kasbiy ko'nikmalarni oshirish, yoshlarning xohish-istaklari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda munosib ish bilan ta'minlash iqtisodiyotni yanada rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir.

Memorandum O'zbekistonda WorldSkills harakatini rivojlantirish maqsadida ikki mamlakat o'rtasidagi muvaffaqiyatli hamkorlikning birinchi bosqichining davomi bo'ldi. Birinchi bosqich doirasida WorldSkills Russia bilan hamkorlikda quyidagi tashabbuslar amalga oshirildi: worldskills standartlari bo'yicha ishsiz aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha monomarkazning tajribali o'qituvchilarini o'qitish, ishchi kasblar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining birinchi ochiq chempionatini tayyorlash va o'tkazish., unda O'zbekiston, Qozog'iston va Rossiya ekspertlari va talabalari ishtirok etmoqda. Chempionat natijasi

O'zbekiston Respublikasining WorldSkills International xalqaro assotsiatsiyasiga qo'shilish to'g'risidagi arizasini ma'qullash bo'ldi.

Loyiha yakunlariga ko'ra, 2021 yilning aprel-may oylarida O'zbekistonning 169 nafar talabasi WorldSkills standartlari bo'yicha birinchi marta mustaqil ravishda o'qitildi va baholandi. Sinovlar natijasida talabalar malakaga ega bo'lish to'g'risidagi sertifikatlarni (Skills Passport), ish beruvchilar esa yosh mutaxassislarning kasbiy darajasi to'g'risida aniq tuzilgan ma'lumotlarni olishdi.

WorldSkills xalqaro harakati tarixi WorldSkills International (WSI) harakati urushdan keyingi yillarda Ispaniyada (1947), dunyoda malakali ishchilar yetishmaganda paydo bo'lgan. Birinchi chempionatlar ishchi kasblarini ommalashtirish va ularning obro'sini oshirish maqsadida o'tkazildi. Bugungi kunda bu jahon standartlari va yangi yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarning ehtiyojlariga muvofiq kadrlar tayyorlashning samarali vositasidir.

WorldSkills shafeligida mintaqaviy, milliy va jahon chempionatlari, qit'a chempionatlari o'tkaziladi. Ishtirokchilar olita kasb bloklari: qurilish sanoati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ijodkorlik va dizayn, sanoat ishlab chiqarishi, xizmat ko'rsatish va fuqarolik transportiga xizmat ko'rsatish sohalarida raqobatlashib, o'z malakalarini oshirmoqdalar.

Xalqaro harakatning yarim asrlik tarixida 85 mamlakat WorldSkillsga qo'shildi. Shu vaqt ichida 500 dan ortiq mintaqaviy, korporativ, oliy o'quv yurtlari va milliy chempionatlar o'tkazildi. Ularda 100 mingdan ortiq ishtirokchi ishtirok etdi. Tomoshabinlarning umumiy soni 2 million kishidan oshdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://mehnat.uz/oz/news/worldskills-nima>
2. <https://review.uz/uz/post/ozbekistonda-world-skillskadrlar-malakasini-oshirishning-yangi-ufqlari>
3. <https://gov.uz/oz/edu/news/view/9267/>